

**" Peshku tumanida sanoat va qishloq xo'jaligi faoliyati natijasida
chiqariladigan chiqindilarning atrof-muhitga ta'siri va bu borada
ko'rilyotgan chora tadbirlar."**

Yarashova Dilshoda Axtam qizi,

Buxoro Davlat Universiteti

Ekologiya va Geografiya kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: yarashovadilshoda80@gmail.com

Fozilova Madina,

Buxoro Davlat Universiteti

Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti

Geografiya ta'lim yo'nalishi, 1- bosqich talabasi

Anotatsiya: *Mazkur maqolada Buxoro viloyatining Peshku tumanida qishloq xo'jaligi va sanoat chiqindilarining atmosfera va atrof-muhitga yetkazayotgan nojo'ya ta'sirlari, statistik ma'lumotlar asosida keltirilgan. Hamda prizdentimiz SHavkat Mirziyoyevning ushbu ekalogik muamolarni oldiniolishga oid ishlab chiqilgan strategik yo'nalishlariga doir tumanda olib borilyotgan tadbirlar va ularning samarasi yoritiladi. Maqolada aholi.salomatligiga ta'sir etuvchi atrof-muhid holatini yaxshilash, uni muhofaza qilishga oid ilmiy tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *qishloq xo'jaligi, sanoat chiqindilari, statistik ma'lumot, aholi turmush tarzi, reyd tadbirlar, qonun va farmoyish.*

Insoniyat taraqqiyoti, xususan, sanoat inqilobi va qishloq xo'jaligining intensivlashuvi iqtisodiy farovonlik bilan bir qatorda, jiddiy ekologik muamolarni ham keltirib chiqaradi. Bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilar tabiatning o'z-o'zini tiklash qobilyatidan ancha yuqori suratlarda to'planmoqda. Sanoat va qishloq xo'jaligining rivojlanishi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi, ammo bu rivojlanish bilan birga atrof-muhitga ko'rsatiladigan salbiy ta'sirlar ham ortib boradi. Sanoat korxonalari insonlar ehtiyojini qondirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun katta hajmdagi mahsulot ishlab chiqaradi. Chiqindilar yirik sanoat va agrar salohiyatga ega hududlarda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chiqindilarni boshqarish_ bu shunchaki tozalik

masalasi emas, balki kelajak avlod uchun yashash muhitini saqlab qolish strategiyasidir.

Bugungi kunda Buxoro viloyat Peshku tumanida sanoat va qishloq xo'jaligi sohasi yildan yilga o'sib bormoqda. Statistik malumotlarga ko'ra 2025- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda ishlab chiqarish sanoati tarkibida Peshku tumanining ulushi oziq-ovqat ishlab chiqarish-4,9%, ishlab chiqaradigan sanoat-1,8%, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish-5,0%, teri va unga tegishli mahsulot ishlab chiqarish-3,6%, mashina va uskunalardan tashqari tayyor material ishlab chiqarish-3,5% va mebel ishlab chiqarish-2,1% ni tashkil etyapti. Statistik ma'lumotlarga ko'ra Peshku tumani sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda boshqa tumanlardan ancha past darajada. Qolaversa ushbu mavjud bo'lgan sanoat korxonalari ham aholi zich joylashgan hududlarda joylashganligi aholi salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Peshku tumanida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish statistik malumotlarga ko'ra 2019-yilda 101,4% ni tashkil etgan bo'lsa 2025-yil yanvar-sentabr oylarida 108,1% ni tashkil etadi. Shu barobarida qishloq xo'jaligidan atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar esa 2019-yilda 13,8% ni, 2024-yilda esa 7,3% ni tashkil etgan. Bu esa atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi chora-tadbirlar ko'rilayotganidan, yuklatigan vazifalar ma'lum miqdorda amalda qo'llanilayotganidan darak beradi.

Yutboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning farmonlariga binoan so'ngi yillarda mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar salomatligiga salbiy ta'sirini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitar-gigeynik va ekologik holat sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida 2023-yil 25-yanvarda "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF 14- son farmoni ijro etildi. Ushbu farmon bilan yuklatilgan vazifa va funksiyalarni inobatga olib, Tabiat resurslari vazirligi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi deb qayta nomlandi. Ushbu farmonning 7-bandi o'n birinchi xat boshi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-noyabrdagi PF-184-sonli farmonga oid bandda 2024-yil 31-dekabrga qadar tumanlarda atmosfera havosi ifloslanishi fon monitoringini amalga oshirish uchun avtomatlashgan kichik

stansiyalar 1- ilovaga muvofiq xarid qilinadi va o'rnatiladi. Ushbu farmon ijrosiga binoan 2023-yilda Peshku tumanida atmosfera havosini ifloslanishi fon monitoringini amalga oshirish uchun ikkita avtomatlashtirilgan kichik stansiya o'rnatilgan.

Sanoat chiqindilari o'zining kimyoviy tarkibi va parchalanish muddati bilan eng xavfli chiqindilar sirasiga kiradi. Ular asosan metallurgiya, kimyo zavodlari, qurulish materiallari ishlab chiqarish va to'qimachilik korxonalaridan ajralib chiqadi. Sanoat korxonalari mo'rilaridan chiqayotgan turli gazlar (oltingugurt oksidi, azod oksidi, uglerod oksidi) havoning tarkibini o'zgartiradi. Bu nafaqat "issiqxona efekti" ni keltirib chiqaradi, balki kislotali yomg'irlarning yog'ishiga sabab bo'lib, o'simlik dunyosini qurutadi. Suyuq sanoat chiqindilari ko'pincha filtrlarsiz ochiq havzalar yoki yer osti qatlamlariga sizib o'tadi. Og'ir metallar (simob, qo'rg'oshin, kadmiy) tuproq zanjiriga kirib, u yerdan oziq-ovqat mahsulotlariga, yakunida esa inson organizimiga o'tadi. Bu esa onkologik va genetik kasalliklar xavfini ortiradi.

Qishloq xo'jaligi_ Peshku tumani iqtisodiyotining ustuni bo'lsa-da, u ham o'ziga xos ekologik yukka ega. Ko'pchilik qishloq xo'jaligi chiqindilarini "tabiiy" deb hisoblaydi, biroq ularning konsentratsiyasi oshib ketishi halokatli bo'lishi mumkin. Zararkunandalarga qarshi ishlatiladigan pestitsidlar va mineral o'g'itlarning ortiqcha qismi yuvilib, zovurlarga tushadi. Bu suvlarning "evtrofikatsiyasi" ga (suv o'tlarining haddan tashqari ko'payib, kislorod yetishmasligi oqibatida baliqlarning o'lishi) olib keladi. Yirik chorvachilik majmualarida to'planadigan go'ng va oqava suvlar tarkibida metan gazi va patogen mikroorganizmlar mavjud. Noto'g'ri saqlangan go'ng uyumlari havoga kuchli badbo'y hid uyumlari havoga kuchli badbo'y hid va metan chiqaradi, bu esa hudud mikroklimatiga salbiy ta'sir qiladi.

Chiqindilarga qarshi kurashda eski usuldagi "chiqindilarni ko'mish" yoki "yoqib yuborish" usullari bugun o'zini oqlamaydi. Jahon hamjamiyati va mamlakatimiz ekologlari quyidagi choralarni ilgari surmoqda:

- Resurslarni tejash va "zero waste" (chiqindisiz) texnologiyasi: ishlab chiqarishning boshidanoq chiqindini mineral darajaga tushurish. Masalan paxtani qayta ishlashda chigit va toladan tashqari qolgan qoldiqlaridan chorva uchun ozuqa yoki texnik moy olish.

- Sirkulyar iqtisodiyot: bu tizimda bir sohaning chiqindisi boshqa soha uchun xomashyo bo'ladi. Masalan, sanoatdagi issiqlik qoldiqlaridan issiqxonalarni isitishga foydalanish.
- Qayta ishlash: plastmasa, shisha, qog'oz va metallarni qayta ishlash orqali tabiatdan yangi resurs olishga bo'lgan ehtiyoj kamaytiriladi. 1tonna qog'ozni qayta ishlash 17 ta daraxtni saqlab qoladi.

Peshku tumani sharoitida qishloq xo'jaligi chiqindilariga qarshi kurashning eng samarali yo'li _ biogaz qurilmalaridir. Go'ng va o'simlik qoldiqlari maxsus rektorlarda bijg'itilib, metan gazi olinadi. Bu gaz bilan uylarni isitish yoki elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin. Bijg'ish jarayonidan keyin qolgan massa kimyoviy o'g'itlardan bir necha barobar afzal bo'lgan, zararkunanda va begona o't urug'laridan tozza organik o'g'itga aylanadi.

Texnologiya qancha rivojlanmasin, inson omilisiz natijaga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun sanoat zonalarida havo va suv tarkibini doimiy tahlil qiluvchi dadchiklar o'rnatish, aholi o'rtasida chiqindilarni saralash madaniyatini shakllantirish, maktab va mahallalarda "yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida daraxtlar ekishni kengaytirish, chiqindini qayta ishlovchi tadbirlarga soliq imtiyozlari berish va aksincha, tabiatni ifloslantiruvchilarga nisbatan qat'iy jarimalar qo'llash choralari hayotga tadbiq etilmoqda.

Ushbu malumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki texnologiyalar jadallik bilan rivojlanib borayotgan bir paytda qishloq xo'jaligidan intensiv vositalardan kengroq foydalanish sanoat korxonalarini asosan klasterlash va korxonalarni qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladigan joylarning o'zida joylashtirish yuqori sifatli ekologiyaga zarar yetkazmaydigan mexanizatsiyalar o'rnatish orqali atrof-muhit tozaligini barqaror saqlash mumkin. Sanoat va qishloq xo'jaligi chiqindilari bu hal qilib bo'lmas muammo emas, balki noto'g'ri boshqarilayotgan resursdir. Peshku tumaninig barqaror rivojlanishi uchun ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish, qishloq xo'jaligiga inovatsion ekologik texnologiyalarni joriy etish va har bir fuqaroga tabiatga nisbatan dahildorlik hisini uyg'otish lozim. Faqatgina tabiat bilan uyg'unlikda yuritilgan iqtisodiyot haqiqiy taraqqiyotga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdulloyev. L. A. "Ekologiya va tabiatdan foydalanish". Darslik. _Toshkent: "O'qtuvchi", 2020 y.
2. Buxoro viloyat sitatistika boshqarmasi. <https://buxstat.uz>
3. Buxoro viloyati Ekologiya va iqlim o'zgarishi bosh boshqarmasi. t.me/Buxoro_Eco.
4. Isakov. V. U. Mirzayev. A. A "Tuproq meloratsiyasi va muhofazasi" _ Toshkent, 2021.
5. Tursunov. S. Rashidov. A. "Sanoat ekalogiyasi" o'quv qo'llanma. _Buxoro 2019y.
6. G'ulomov. P. N. "Inson va tabiat" _ Toshkent. 2018 y.
7. Sh. M. Mirziyoyev "Yashil makon" umummilliy loyhasi doirasidagi video selektor maruzalari. _Toshkent, 2021-2023 y.